



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.2 № 4

2025

YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDA MEHNAT BOZORINING TALABI

**Ulashev Xubbim Askarovich – “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasida dosenti, iqtisod fanlari
nomzodi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.**

Annotatsiya Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarining yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashi bugungi kunda mehnat bozorining o'sib borayotgan talablaridan biri ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligi aholi kasbiy tayyorgarligi, malaka va ko'nikmasi, intellektual salohiyatining oshishiga imkon yaratib, pirovardida mehnat unumdorligining o'sishi orqali mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi misollar yordamida asoslab berilgan, hamda taklif va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xizmatlari, sifat, samaradorlik, aholi kasbiy tayyorgarligi, malaka, ko'nikma, intellektual salohiyat, mehnat unumdorligi, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar.

ТРЕБОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА В ПОДГОТОВКЕ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ

Улашев Хуббим Аскарлович — доцент кафедры «Экономическая теория», кандидат экономических наук, Самаркандский институт экономики и сервиса.

Аннотация В статье рассматривается вопрос о том, что подготовка высококвалифицированных специалистов в высших учебных заведениях является одним из растущих требований современного рынка труда. На примерах обосновывается качество и эффективность образовательных услуг, которые позволяют повышать профессиональную подготовку, умения и навыки, интеллектуальный потенциал населения и, в конечном итоге, положительно влиять на макроэкономические показатели страны за счет повышения производительности труда, а также приводятся предложения и замечания.

Ключевые слова: образовательные услуги, качество, эффективность, профессиональная подготовка населения, квалификация, навыки, интеллектуальный потенциал, производительность труда, макроэкономические показатели.

LABOR MARKET REQUIREMENTS IN THE TRAINING OF HIGHLY QUALIFIED SPECIALISTS

Ulashev Khubbim Askarovich — Associate Professor of the Department of Economic Theory, Candidate of Economic Sciences (PhD), Samarkand Institute of Economics and Service.

Abstract: This article examines the growing demand for highly qualified specialists in higher education institutions in the modern labor market. Examples are provided to demonstrate the quality and effectiveness of educational services, which enhance professional training, skills, and intellectual potential of the population and, ultimately, positively impact the country's macroeconomic indicators by increasing labor productivity. Suggestions and comments are also provided.

Key words: educational services, quality, efficiency, professional training of the population, qualifications, skills, intellectual potential, labor productivity, macroeconomic indicators.

Kirish

Bugungi kunda global maqsadlar, deb ataladigan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan kambag'allikka barham berish, sayyoramizni himoya qilish va 2030-yilga qadar barcha odamlar tinchlik va farovonlikdan bahramand bo'lishini ta'minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish yo'lidagi universal

chorlov sifatida qabul qilingan. Barqaror rivojlanish sohasidagi 17 maqsad kompleks xususiyatga ega bo'lib, ularda bir sohadagi harakatlar boshqa sohalardagi natijalarga ta'sir qilishi hamda rivojlanish ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashi lozimligi vazifa qilib belgilab berilgan. Shu jihatdan olib qaraganda har bir davlatning barqaror rivojlanishi uchun raqobatga qodir bo'lgan kadrlar tayyorlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifa ta'lim tizimining sifat va unumdorligini ta'minlash maqsadida yuqori darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan pedagog va mutaxassis kadrlar tarkibini shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili

Ilmiy izlanishlar natijalarida ta'lim xizmatlarini, raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar sifatida qarash taklif qilingan. Masalan, A.E.Viflemskiy o'z tadqiqotlarida "ta'lim xizmatlari – bu iste'molchida yangi bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy fazilatlarini hamda ishchi kuchining bahosini va mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi chora tadbirlar umumlashmasi" deb ta'rif beradi.

O.V.Saginovaning fikricha, "har qanday o'quv yurtining mahsuloti ta'lim dasturi, ta'lim jarayonida kasbga tayyorlash, o'qitish va qayta tayyorlashda ehtiyojlarni qondirish, ya'ni muayyan ijtimoiy samaraga erishish uchun ishlab chiqiladi".

M.A.Lukashenko o'zining asarlarida "ta'lim xizmati bu ayirboshlash uchun ishlab chiqarilgan va ta'limda subyektlar ehtiyojini qondiruvchi o'ziga xos iqtisodiy manfaat".

I.V.Zaxarovaning fikricha "ta'lim xizmatlari - zamonaviy fan va texnika yutuqlari asosida u yoki bu ko'rinishdagi kasbiy faoliyatda amal qilishi uchun zaruriy bilim, mahorat, ko'nikmalarni egallashda jismoniy va yuridik shaxslar ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan o'quv yurtlarining faoliyatidir".

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolada induksiya va deduksiya, analiz va sintez, grafik va taqqoslama tahlil, SWOT tahlili, statistik va ekonometrik modellash, chiziqli trendlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Ta'lim xizmatlari sifati va samaradorligi aholi kasbiy tayyorgarligi, malaka va ko'nikmasi, intellektual salohiyatining oshishiga imkon yaratib, pirovardida mehnat unumdorligining o'sishi orqali mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda o'rta ta'limdan keyingi ta'limni tugatgan katta yoshdagi axolining ulushi oshib bormoqda. Xususan, ushbu ko'rsatkich "Kanadada 56,27%ni, Yaponiyada 50,5%ni tashkil qiladi. Dunyodagi eng sifatli ta'lim tizimi Finlyandiya bo'lib, mamlakat yoshlarining 93%i o'rta ta'limni muvaffaqiyatli bitirib, 66%i OTMda o'qishni davom ettiradi". Ta'lim xizmatlari samaradorligi va sifatini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish va undan foydalanish darajasini yuksaltirib borish obyektiv zaruriyatga aylanib bormoqda.

Mamlakat ijtimoiy rivojlanish tamoyillari zamonaviy kasbiy bilimga ega bo'lish shart-sharoitlarini yaratishning yangi bosqichiga o'tishni zaruratga aylantirdi. Shu sababli, keyingi yillarda respublikamizda ham OTMlar soni doimiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ularning soni 2023-yilda 2019-yilga nisbatan deyarli 1,8 martaga oshdi. Hududlar kesimida ham OTMlar soni Navoiy va Namangan viloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda o'sish tendensiyasiga ega. Xususan, eng ko'p OTMlar soni Toshkent shahri (95 ta) va Samarqand (15 ta), Farg'ona (13 ta), Surxondaryo (8 ta), Qashqadaryo (11 ta), Toshkent (95 ta), Andijon (10 ta), Buxoro (13 ta) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (12ta) hissasiga to'g'ri keladi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari soni (o'quv yili boshiga, birlik)

Hududlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil
O'zbekiston Respublikasi	119	127	154	191	219
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9	9	10	10	12
Andijon	5	6	8	10	10
Buxoro	5	5	6	11	13
Jizzax	3	3	4	5	5
Qashqadaryo	6	6	6	9	11
Navoiy	2	2	2	4	4
Namangan	3	3	3	6	9
Samarqand	11	12	14	15	15
Surxondaryo	7	7	7	7	8
Sirdaryo	2	2	2	3	3
Toshkent	5	8	8	10	13
Xorazm	3	3	6	8	8
Farg'ona	10	10	11	11	13
Toshkent sh	48	51	67	82	95

Oliy ta'lim muassasalari sonining bunday sur'atlar bilan o'sishi O'zbekistonda ko'pchilik subyektlarning oliy ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda, iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida oliy ma'lumotli mutaxassislar ulushini ko'paytirishda muhim bosqich bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Bugungi OTMlardagi mutaxassislar tayyorlash eng avvalo mehnat bozorining o'sib borayotgan talabi, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qarab amalga oshirilmoqda. Ayniqsa Universitetlar tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislariga mehnat bozorida talabning tobora o'sib borishi bilan birga, ularda ilmiy tadqiqot ishlari miqdor va sifat jihatidan takomillashib borayotganligi hech birimizga sir emas.

Dunyo bo'ylab har xil soha vakillari fuqarolik ilmi orqali muhim tadqiqotlarga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Ishtirokchi ilmi, jamoatchilik ilmi yoki ko'ngillilar monitoringi deb ham ataladigan bu hamkorlik yondashuvi har kimga ilmiy jarayonda ishtirok etish imkonini beradi va dunyoni tushunishimizda haqiqiy o'zgarish yasaydi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, kashfiyotlar, yutuqlar va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli ulushi aynan universitetlar hissasiga to'g'ri kelayotganligiga guvoh bo'lamiz.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan universitetlar soni

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023-yili 2019-yilga nisbatan o'sish, foiz
Universitetlar soni, birlikda	119	127	154	191	219	1,84 marta
Ulardagi talabalar soni, ming kishi	440991	571512	808439	1042100	1314542	2,98 marta
Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	128730	165021	220124	275496	350147	2,72 marta

Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi	70793	83905	103898	102381	184133	2.60
---	-------	-------	--------	--------	--------	------

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Respublikamizda faoliyat yuritayotgan universitetlar soni 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 119 tadan 100 taga ko'payib 219tani tashkil etgan, ulardagi talabalar soni 2,98 martaga oshgan, qabul qilingan talabalar soni esa 2,72 martaga oshdi. Shuningdek, bitirgan mutaxassislar soni 2023-yilida 2019-yilga nisbatan 2,6 %ga oshdi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari O'zbekistonda oliy ta'lim tizimida miqdoriy ko'rsatkichlarning o'zgarishi bilan birga, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalar tarkibida diqqatga sazovor o'zgarish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatdi. 2-jadvalda O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari soni 2019-yilda 440991 mingtani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023-yilda 1314542 mingtaga yetganligi, qariyb 3 barobarga ortganligini, bu ko'rsatkichlardan ma'lumki mamlakatimizda ta'lim xizmatlari bozori tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligi to'grisida xulosa chiqarishga asos bo'ladi (3-jadval).

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalari soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)

Hududlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2019-yili 2023-yilga nisbatan o'sish, foiz
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25442	35487	46585	57503	64146	2,52
Andijon	26036	30895	47651	58312	66201	2,54
Buxoro	24771	35625	43959	57484	82951	3,34
Jizzax	18000	23391	29955	36951	37568	2,08
Qashqadaryo	22452	27835	44222	57426	78397	3,49
Navoiy	13636	17015	21710	30294	38813	2,84
Namangan	20109	25989	41829	52319	62528	3,11
Samarqand	41093	54827	70772	84739	90588	2,20
Surxondaryo	20131	25628	39909	50634	67406	3,35
Sirdaryo	9089	9597	16764	21524	23190	2,55
Toshkent	20914	28509	42828	60399	72576	3,47
Farg'ona	35819	48415	62332	77722	84896	2,37
Xorazm	16216	22787	28741	42770	53943	3,32
Toshkent sh	147283	185512	271182	354023	491339	3,33
Respublika bo'yicha	440991	571512	808439	1042100	1314542	2,98

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari O'zbekiston hududlarida 2019-yilda hamda 2023-yillar davomida oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar sonining notekis o'zgarayotganligini ko'rsatdi. Masalan, O'zbekiston bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tahsil olayotgan talabalar soni shu davr mobaynida qariyb 3 martaga ko'paygan bo'lsa, Surxondaryoda u 3,35 marta, Toshkentda va Buxoroda 3,33 marta, Sirdaryoda 2,55 marta ko'paygan. O'ylaymizki, kelajakda ushbu notekislikni asta-sekin bartaraf etish yo'llarini izlab topish kerak.

Xulosa

Kelajakda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar sifatida imtiyozli ta'lim kreditlari berish tizimini joriy etish, yuqori malakali mutaxassislar kelgusidagi talabni diqqat bilan o'rganish mutaxassislar mehnat bozori monitoringini o'tqazish hamda OTMlarni innovatsion faoliyatga rag'batlantirishning samarali tizimini shakllantirishdan iborat. Iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini faol takror ishlab chiqarish manbaiga aylantirish shart-sharoitini belgilaydigan omillardan biri - bu yosh mutaxassislar ishtirokining ko'lamini hisoblanadi. Shunday ekan, mamlakat hududlari bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar sonining o'sib borishi (2019- hamda 2023-o'quv yillari davomida), bir tomondan, kelgusida bitiruvchilar sonining keskin oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan, oliy ma'lumotga ega mutaxassislar o'rtasida raqobat kurashini yuzaga keltiradi. Ta'lim xizmatlari bozoridagi bu qadar yuqori natijalar mamlakatimizning ta'lim sohasidagi salohiyatini keskin ko'tarish, uning milliy iqtisodiyoti mavqeini mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan burgalikda ilmiy salohiyatga, bilimga hamda malakaga ega bo'lgan jahon ta'limiga oid bilimlarni puxta egallagan kadrlarni ro'yobga chiqishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori. № PQ-3775. 05.06.2018 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 23 sentyabr 2020 yil. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 13-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
5. Mirziyoev Sh.M. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezdidagi ma'ruzasi. 21 oktyabr, 2016 yil. "Xalq so'zi", 2016 yil 22 oktyabr.
6. Вифлеемский А.Е. Экономика образования / А.Е. Вифлеемский. – М., 2003. – 342 с.
7. Сагинова О.В. Изменения на рынке образовательных услуг / www.marketologi.ru
8. Лукашенко М.А., Т.Ю.Добровольская, Цифровая корпоративная культура предпринимательского университета // Современная конкуренция. - М.:№ 4, 2020.
9. Захарова И.В. Маркетинговые в современном вузе: тенденции исследований // Высшее образование в России. 2018. Т.27.№ 6. С. 20-30
10. Mazzarol, Tim, and Geoffrey Norman Soutar. "Sustainable Competitive Advantage for Educational Institutions: a Suggested Model." International Journal of Educational Management 13.6 (1999): 287–300. Web.
11. Giorgia Miotto, Cristina Del-Castillo-Feito, Alicia Blanco-González, Reputation and legitimacy: Key factors for Higher Education Institutions' sustained competitive advantage, Journal of Business Research, Volume 112, 2020, Pages 342-353, ISSN 0148-2963, <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2019.11.076>.
12. Ахунова Г.Н. Ўзбекистонда таълим хизматлари маркетинги муаммолари. Монография. – Т.: Иқтисод-Молия, 2005
13. Саъдуллаева Г.С. Олий таълим хизматлари бозорини ривожлантиришнинг маркетинг стратегияси. 08.00.11 – Маркетинг, 08.00.05 – Хизмат кўрсатиш тармоқлари

иқтисодиёти. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Тошкент, ТДИУ., 2021 й.

14. Каҳҳоров О. Олий таълим муассасалари маркетинг фаолияти самарадорлигини бошқариш. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2019 yil